



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 7-avgust, payshanba,
89 (24.115)-son

O'zbek xalq
maqoli

Saroy
qurib,
shahar
buzma

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

30 сотих томорқаси ва автомашинаси бор оила камбағалми?

Вилоятда аҳолини камбағалликдан чиқариш, камбағал оилалар реестрига киритилган оилалар даромадини ошириш борасидаги ишлар ҳокимлик соатида таҳлил қилинганда ушбу савол юзага чиқди.

Маълумотларга кўра, жорий йилнинг биринчи ярмида вилоятимизда 337,9 минг нафар аъзолари бўлган 79,5 минг оила камбағал оилалар реестрига киритилган. Шу пайтгача 37,1 мингта оиланинг 56,3 минг нафар аъзолари барқарор бандлик хизматлари билан қамраб олиниб, 11,3 минг оила камбағаллик реестридан чиқарилган.

Белгиланган чора-тадбирларнинг амалга оширилиши, оилаларнинг доимий даромад манбаига эга бўлишига эришилши натижасида вилоятда камбағаллик даражаси йил бошидаги 7,5 фоиздан 6,8 фоизга туширилди.

Бироқ таҳлиллар жойларда "маҳалла еттилик" томонидан оилалар пухта ўрганилмасдан турмуш шароити яхши, даромадга эга бўлган хонадонлар ҳам камбағаллик реестрига киритилганини кўрсатади.

Мисол учун, Ургут тумани Ўзбекистон маҳалласида турмуш ўртоғи АҚШда ишловчи, икки нафар фарзанди бор аёл хашаматли уй-жойи, иккита автомашинаси бўлса-да, камбағал оила реестрига киритилган.

Паст Дарғом тумани Қоровултепа маҳалласидаги 3 нафар фарзанд тарбияланаётган оилада эркак хорижда меҳнат фаолияти билан шугулланаётгани ва бир киши кексалик пенсияси олиши, хонадонда "Дамас" автомобили ҳамда икки бош қорамол мавжудлигига қарамай, камбағал оилалар реестрига киритилганини қандай изоҳлаш мумкин?

Каттақўрғон тумани Муллақўрпа маҳалласида иккита автомашинаси бор, эр устачилик билан шугулланадиган оила, Янгиривот маҳалласида эса 24 сотих томорқа ер майдони, уч бош қорамоли, автомобиль ва электр мотоскутери мавжуд оиланинг нима учун камбағал оилалар реестрига киритилганини "маҳалла еттилик"дан бошқа биров билмас керак.

Нуробод тумани Сазагон маҳалласида 30 сотих томорқаси, битта юк автомашинаси ва 4 бош қорамоли бўлган оиланинг ҳам нега камбағал оилалар реестрига киритилганини "еттилик" изоҳлаб бера олмади. Боз устига бу оилада эр ўз шахсий автомашинасида йўловчи ташиш билан шугулланади, хотин эса мактабда ўқитувчи экан.

Жойларда бу каби ишга масъулиятсизлик билан ёндашиш, ҳолатни юзак

бахолаш оқибатида камбағал оилалар сони йил бошига нисбатан Пахтачи туманида 3,8 фоизга, Каттақўрғон шаҳрида 3,3 фоизга, Нарпайда 1,1 фоизга, Каттақўрғон туманида 0,6 фоизга ошган.

Савол туғилади – маҳаллада қайси оила ёрдамга нисбатан Пахтачи туманида 3,8 фоизга, Каттақўрғон шаҳрида 3,3 фоизга, Нарпайда 1,1 фоизга, Каттақўрғон туманида 0,6 фоизга ошган.

Савол туғилади – маҳаллада қайси оила ёрдамга нисбатан Пахтачи туманида 3,8 фоизга, Каттақўрғон шаҳрида 3,3 фоизга, Нарпайда 1,1 фоизга, Каттақўрғон туманида 0,6 фоизга ошган.

Ушбу пайтгача вилоят ҳокимининг қишлоқ ва сув xo'jaligi масалалари bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan **Shunqor Farmonovich Xudoyberdiyev Payariq tumani hokimi** etib tasdiqlandi.

Ушбу пайтгача вилоят ҳокимининг қишлоқ ва сув xo'jaligi масалалари bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan **Shunqor Farmonovich Xudoyberdiyev Payariq tumani hokimi** etib tasdiqlandi.

Ушбу пайтгача вилоят ҳокимининг қишлоқ ва сув xo'jaligi масалалари bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan **Shunqor Farmonovich Xudoyberdiyev Payariq tumani hokimi** etib tasdiqlandi.

Ғолиб ҲАСАНОВ.

5-avgust kuni Payariq, Toyloq va Urgut tumanlarida xalq deputatlarini Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalari o'tkazildi.

Вилоят ҳокими вазифасини bajaruvchi A.Boboyev hamda viloyat boshqarma va idoralari rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan sessiyalarda tashkiliy masalalar ko'rildi.

Payariq tumani Kengashi sessiyasida I.Jabborov boshqa ishga o'tishi munosabati bilan tuman hokimi vazifasidan ozod etildi.

Shu paytgacha viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan **Shunqor Farmonovich Xudoyberdiyev Payariq tumani hokimi** etib tasdiqlandi.

Payariq, Toyloq va Urgutda hokimlar o'zgardi



2018-yildan buyon Toyloq tumani rahbarlik qilgan B.Bobonazarov ham o'z arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etildi.

Deputatlar ayni vaqtda qadar viloyat hokimligi

tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari sifatida faoliyat ko'rsatgan **Behzod Rahmatullayevich Rahmatullayev** nomzodini **Toyloq tumani hokimi** vazifasiga tasdiqladilar.

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining sessiyasida boshqa ishga o'tishi munosabati bilan Botir Jabborov Urgut tumani hokimi vazifasidan ozod etildi. U 2020-yildan buyon ushbu lavozimda faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi.

Viloyat prokurori o'rinbosari vazifasida ishlab kelayotgan **Dilmurod Bostamovich Saidqulov** viloyat hokimi tavsiyasiga ko'ra, **Urgut tumani hokimi** vazifasiga tasdiqlandi.

Sessiyalarda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev so'zga chiqib, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi, aholi turmush darajasini oshirish borasidagi ishlarni tahlil qilib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, infrazo'riyatni yaxshilash yuzasidan vazifalarni belgilab berdi.



VILOYAT HOKIMLIGIDAGI TAYINLOVLAR

Keyingi bir yil davomida Narpay tumani hokimi vazifasida faoliyat ko'rsatgan **Sherbek Bo'ronov viloyat hokimining moliya, iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari** – iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Viloyat hokimining qurilish, to'siqlasiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasi **Navroz Rahmonovga** topshirildi.

Bungacha N.Rahmonov viloyat hokimi o'rinbosari kotibiyati mudiri edi. Urgut tumani hokimi vazifasidan ozod etilgan **Botir Jabborov viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari** – qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i lavozimida ish boshladi.

Viloyat hokimining o'rinbosari - viloyat investitsiyalar va

tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i lavozimiga shu paytgacha O'zbekiston Respublikasining Hindistondagi elchixonasi savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchisi bo'lgan **Xurshidbek Samiyev** tayinlandi.

Avval viloyat hokimining birinchi o'rinbosari, keyinchalik Respublika Savdo-sanoat palatasi rahbari o'rinbosari bo'lib ishlagan **Jamshid O'roqov** endi faoliyatini viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi sifatida davom ettiradi.

Viloyat soliq boshqarmasi rahbariyatida ham o'zgarish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi bilan **Farrux Boboyev Samarqand viloyati soliq boshqarmasi boshlig'i** etib tayinlandi.

F.Boboyev mazkur tayinlovga qadar Soliq qo'mitasida soliq organlari faoliyati ustidan nazorat qilish departamenti direktori lavozimida ishlab kelayotgan edi.

Темирйўл орти ҳудудида замонавий тураржойлар барпо этиш ишлари бошланди

Реновация дастури асосида Самарқанд шаҳрининг темирйўл орти ҳудудидаги 3 мингга яқин маъна эскирган уй-жойлар ўрнида 100 минг аҳолига мўлжалланган кўп хонадонли уй-жойлар, ижтимоий соҳа объектларининг қурилиши белгиланган эди.

Вилоят ҳокими вазифасини bajaruvchi Адиз Бобоев бу ишларнинг бошланиши ва жараёнларнинг бориши билан мунтазам танишиб, мутахассислар билан бир неча бор муҳокамалар ўтказди. Кеча дастлабки босқичда Меҳнат ҳамда Майсазор маҳаллаларида кўп қаватли уйлар қурилиши бошланди.

Мазкур ҳудудда "Global Avenue" қурилиш компанияси томонидан биринчи босқичда 516 та хонадонга мўлжалланган 12 қаватли тураржой мажмуаси барпо этилади. Майсазор маҳалласида эса "Хумдон" МЧЖ томонидан 12 қаватли 80 та хонадондан иборат кўп қаватли бино қурилади.

Шу муносабат билан ташкил этилган тадбирда вилоят ва шаҳар жамоатчилиги, нурунийлар ва қурилиш ташкилотлари вакиллари иштирок этди. Унда ушбу масъулият барпо этиш, қурилиш ишларини сифатли амалга ошириш ҳақида гапирилиб, қурилиш ишларига ривож тилаб, дуо қилинди.

Халқаро метрик конвенцияга қўшиламыз

Сенатнинг тўққизинчи ялпи мажлисида "Халқаро метрик Конвенцияга (Париж, 1875 йил 20 май, 1907 йил 17 октябрдаги, 1913 йил 11 октябрдаги ва 1921 йил 6 октябрдаги ўзгартириш ва қўшимчалар билан) Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши ҳақида"ги Қонун муҳокама қилинди.

Мазкур Конвенцияга қўшилиш мамлакатда ўтказилган ўлчашлар натижаларининг халқаро даражада тан олиншига эришиш ҳамда савдо ва экспорт салоҳиятини янада оширишга хизмат қилиши билан аҳамиятли.

Аслида одам дунёга келиб қўйлашлар объектга айланади. Дастлаб янги жамият аъзоси - чақалоқнинг вазни, бўйи ва тана ҳарорати ўлчанади. Кейинчалик унинг ўзи ўл-

чашларни амалга оширади. Шу сабаб тарози, соат, чизгич, термометр, ҳисоблагич ва бошқа ўлчаш воситалари ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланган.

Тўғри, қадимда ўлчовлар тахминий ва содда бўлган. Масалан, ўлчов учун киши оёғи, қўл бармоғи, тирсаги узунлигидан фойдаланилган. Жамият ривожланиб, иш қуроллари ва яшаш тарзининг янада такомиллашгани сари турли ўлчаш бирликлари пайдо бўлган. Вақт ўтиши билан эса савдо-сотик ва ўзаро иқтисодий алоқаларнинг ривожланиши туфайли ўлчовларга аниқлик киритиш, янгиларини ҳосил қилиш, ўзаро солиштириш ва қиёслаш усуллари шаклланиб, ўнлаб янги ва мукамалроқ ўлчаш бирликлари пайдо бўла бошлаган. Бу бирликларнинг ўзаро боғлиқлиги масалалари эса тобора муҳим аҳамият касб эта бошлаган. Шу боис олимлар томонидан тақдим этилган метрик тизим 1875 йил 20 майда Парижда 20 га яқин мамлакат вакиллари қонференциясида қабул қилинган ва Метрик Конвенция номи билан олган. Халқаро келишувдан сўнг Конвенция метрик эталон-

ларни сақлаш ва текшириш учун илмий муассаса сифатида ўлчовлар ва тарозилар халқаро бюроси ҳам таъсис этилган.

Ҳозирги кунга келиб, Конвенцияда 64 та давлат, жумладан, Туркия, Франция, Германия, Қозғоғистон, Хитой, Корея, Япония қўшилган ҳамда 37 та давлат, хусусан, Ўзбекистон уюшган аъзо сифатида иштирок этмоқда.

Ушбу Конвенцияга қўшилиш натижасида Ўзбекистоннинг савдо-иқтисодий салоҳияти янада ошади, Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиши йўлидаги ишлар жадаллашади. Яъни, халқаро савдо масалалари, жумладан, экспорт-импорт соҳасининг ажралмас қисми бўлмиш метрология соҳасида халқаро ҳамкорлик сезиларли даражада кенгайди, мавжуд техник тўсиқлар камаяди.

Мазкур ҳужжатнинг асосий мақсади барча давлатлар учун ўлчовлар бирлигини таъминлайдиган умумий ва ишончли эталонлар яратиш, уларни сақлаш, миллий эталонларни халқаро прототиплар билан қиёслаш ва ўзаро тан олиш имконини берувчи ягона тизимни шакллантириш

Сенат ялпи мажлисидан сўнг



ҳамда бу орқали давлатлар ўртасидаги техник ҳамкорликни кучайтиришдан иборат.

Конвенцияда иштирок этувчи давлатларнинг метрологик стандартлар бирлигини таъминлаш, шу жумладан, эталонлар ва аниқлик шкалаларини солиштириш, геодезик ўлчовларни солиштириш ва калибрлаш, миллий эталонларнинг халқаро прототипларни эталонлар билан даврий солиштириш ҳамда халқаро прототипларни сақлаш каби муҳим масалалар назарда тутилган.

Мазкур қонуннинг қабул қилиниши мамлакатимизнинг Халқаро тарози ва ўлчовлар бюроси фаолиятида фаол иштирок этиши, овоз бериши ҳамда Бюронинг консултиватив қўмитасига ўтказиладиган сайловларда ўз номзодларини илгари суришига имконият яратлади.

Борога аъзо бўлиш мамлакатнинг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилашга, инвестициялар жалб этувчанлигини оширишга, экспорт салоҳиятини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Марям НИЁЗОВА,
Олий Мажлис Сенати аъзоси.

Bugun talabalarga chet elda amaliyot o'tash imkoniyati yaratilyapti. Avvallari bunday imkoniyat deyarli yo'q edi. Masalan, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabalari bir necha yildan buyon Germaniya, Polsha kabi davlatlarda amaliyot o'tab kelmoqda. O'tgan yili ushbu davlatlarda institutning ikki yuzga yaqin talabasi amaliyot o'tagan bo'lsa, bu yilgi yozgi ta'tilda ham yuzdan ortiq talaba amaliyotga yuborildi. Jumladan, bir guruh talabalar xorijda uch oylik haq to'lanadigan amaliyotda bo'ldi. Ular bilan chet el taassurotlari, amaliyotda o'rganganlari haqida suhbatlashdik.

Xorijda amaliyot: Talabalar nima bilan mashg'ul bo'ldi?

Dastlab institutning iqtisodiyot va boshqaruv fakultetining turizm (agroturizm) yo'nalishi 4-bosqich talabalariga quloq tutdik.

Ravshan SULTONOV:

- Germaniyada uch oy amaliyotda bo'ldim. Asosan qishloq xo'jaligi ekinlari ekish, parvarishlash bilan tanishdik. Germaniya qishloq xo'jaligida zamonaviy texnikalardan keng foydalanyapti. Biz kashkani kovlab oladigan yoki dalani begona o'tlardan tozalaydigan texnikalar bilan tanishdik, ularni boshqarishni o'rgandik. Germaniyada ravoch o'simligi katta dalalarda ekilar ekan va undan murabbo, sharbat tayyorlashyapti. Kelajakda ravoch o'simligini O'zbekiston sharoitida ekib, turli mahsulotlar tayyorlashni yo'lga qo'ymoqchiman. Dam olish kunlari biz istiqomat qilgan Rostok shahrining tarixiy obidalariga sayohat qildik, diqqatga sazovor joylarida bo'ldik.

Shahzod BOZORBOYEV:

- Yurtimiz qishloq xo'jaligida katta muammolardan biri - yoqilg'i bo'lib, Germaniyada bunga yechim topilgan. Ularda qishloq xo'jaligiga oid texnologiyalar quyosh energiyasi bilan ishlaydi. Bu bir tomondan, yoqilg'i sarfiga ketadigan pulni tejasa, ikkinchi tomondan ekologiya ifloslanishining oldini oladi. E'tiborimizni tortgan yana bir jihat, ularda yerlar sug'orilmaydi, yomg'ir ko'p yoqqani uchun sug'orishga ehtiyoj bo'lmaydi.

Olmonlar qishloq xo'jaligi texnologiyalarini quyosh energiyasi hisobiga ishlatishadi. Kelajakda mana shunday texnologiyalarni yaratish ustida ishlamoqchiman.

Sobirjon ABDURAHMONOV:

- Germaniya qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakat. Amaliyotimizning birinchi kuni lavlagi maydonida bo'ldik. Lol qoldirgani, ekin ustiga mato yopilgan. Ertalab Germaniyada shudring tushadi. Shu sabab lavlagi ustidagi mato namlanadi va kun bo'yi namlikni ushlab turadi. Ba'zida haftalab yomg'ir yog'may qolishi ham mumkin. Bunday sharoitda lavlagi so'lib qoladi.



Husniddin PARDAYEV,

institutning xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i:

- Joriy yilda institutning 132 nafar talabasi Germaniyaning qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash kompaniyalariga haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotiga yuborildi. 24 nafar talaba "Agrisool" loyihasi doirasida Polshaga haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotiga jo'natildi. Joriy yilning avgust-oktabr oylarida yana 66 nafar talabamizni Germaniyaga amaliyotga yuborishni rejalashtirganimiz. Maqsadimiz - xorijiy hamkorlar bilan birgalikda jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlash.

Xurshida ERNAZAROVA yozib oldi.

Joriy yilning aprel oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan iqlim forumi doirasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Jahon banki rasmiylari bilan hamkorlikda "O'zbekiston mo'tadil manzaralarini tiklash loyihasi" (RESILAND)ni amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

Jahon banki ushbu loyiha uchun umumiy qiymati 153 million AQSh dollari bo'lgan imtiyozli kredit va grantlardan iborat moliyalashtirish paketini taqdim etmoqda. Mazkur mablag'lar Markaziy Osiyoning besh davlatida zararlangan o'rmonlar va yerlarni qayta tiklashga qaratilgan mintaqaviy dastur doirasida ajratiladi.

Xususan, O'zbekistonda RESILAND loyihasi doirasida "Yashil loyiha" instituti va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (IDA) ko'magida Jizzax, Qashqadaryo, Namanagan, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi 37 ta o'rmon xo'jaligi, 5 ta milliy tabiat bog'i va 2 ta o'rmon-ovchilik xo'jaligida ekologik tasniflash ishlari olib borilmoqda.

Jahon bankingning Markaziy ofisi vakillaridan iborat delegatsiya Samarqand viloyatida bo'lib, "O'zbekistonda barqaror o'rmon-landshaftlarini tiklash" loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ekologik tasniflash ishlari bilan tanishdi.

— Samarqanddagi o'rmon xo'jaliklari va tabiat bog'larida ekologik tasniflash ish-

RESILAND loyihasi amalga oshirilmoqda



lari yaylovlarni tiklash, o'rmonlarning tabiiy tiklanishiga ko'maklashish, yer eroziyasiga qarshi choralar ko'rish, dorivor o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish, sanoat o'rmonlarini barpo etish va ekoturizmni rivojlantirish yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda, — deydi Jahon banki loyihalari rahbari Asferacho Abate Abebe. — Har bir hududda faoliyat turiga qarab, chegara ustunlari o'rnatilgan, ekologik monitoring tizimi joriy etilgan. Tasniflash ishlari xalqaro TIZAM (Restoration Opportunities Assessment Methodology) metodologiyasi asosida, iqlimiy, geobotanik va ijtimoiy omillar inobatga olingan holda amalga oshirilmoqda.

RESILAND loyihasi mutaxassisi Nodira Ahmedxo'jayevaning ta'kidlashicha, viloyatda loyiha doirasida 24 ming 250 gektar

maydonda tasniflash ishlari olib borish belgilangan bo'lib, hozirga qadar 19 ming 819 gektar yerda ekologik tasniflash jarayonlari amalga oshirilgan. Loyiha hamkorlari agroo'rmonchilik imkoniyatlari va mahalliy aholi bilan hamkorlikda olib borilayotgan yondashuvlar, loyiha jamoasining malakasi, ilmiy asoslangan yondashuvlari va mahalliy sharoitlarga mos yechimlarini yuqori baholadi. Biroq ayrim yo'nalishlarda yuqori ijro qayd etilgan bo'lsa-da, yaylovlarni tiklash va sanoat o'rmonlarini rivojlantirish kabi sohalarida natijalarni yanada yaxshilash zarur. Loyihaning asosiy ustuvorligi butun landshaftni barqaror tiklash va ekotizimlar o'rnatishidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlashdan iborat.



Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Yil oxirigacha mahallamizda ishsiz qolmaydi

Yurtimizda mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag'allikni qisqartirish, manzilli moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarini bevosita mahalla darajasiga tushirishda hokim yordamchilarining ham o'z o'rni mavjud. Ayni paytda mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash ularning zimmasida hamda buni amalga oshirish uchun moliyaviy manbalar bilan ta'minlangan.



Mahallamiz shahar markazida joylashganligi bois xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, o'quv markazlar va savdo markazlari ko'p. Shuning uchun mahallaning o'sish nuqtasi sifatida xizmat ko'rsatish, savdo hamda turizm yo'nalishlari belgilangan. Mahallada ayni paytda 705 xonadonda 824 oila bo'lib, 2323 nafar aholi istiqomat qiladi.

Ishni mahalla aholisini xatlovdan o'tkazishdan boshlagan edik. O'rganishlardan so'ng xonadonlar to'rt toifaga ajratildi. Natijada birinchi toifaga 29 ta, ikkinchi toifaga 131 ta, uchinchi toifaga 182 ta va to'rtinchi toifaga 363 ta xonadon kiritildi va shu asosda belgilangan vazifalar bo'yicha ish boshlandi. Eng avvalo, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamini aniqlab oldik. "Ayollar daftari"ga 65 nafar xotin-qiz, "Yoshlar daftari"ga 10 nafar yosh kiritildi. O'nta kambag'al oilaga yordam ko'rsatilib, ularga 20 million so'mlik asbob-uskunalar berildi. "Ayollar daftari"ga kiritilgan 65 nafar xotin-qizga bir million 320 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi.

Faoliyatimizning asosiy yo'nalishi moliyaviy instrumentlar, ya'ni tegishli xulosa va tavsiyalar asosida beriladigan kredit, subsidiya va moddiy yordamlarni to'g'ri taqsimlangan holda hududda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlik muammosini bartaraf etish, kambag'allikni qisqartirishdan iborat. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablariga asosida 35 nafar fuqaroga 284 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2022-yil 11-maydagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mab-

lag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida 10 nafar fuqaroga 80 million so'mdan subsidiya ajratilib, ularning faoliyati uchun zarur asbob-uskunalar olib berildi. Natijada hududda 40 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

2022-2023-yillardagi faoliyatim maboyanida hududda 18 ta kichik biznes subyekti, 25 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 5 nafar hunarmand va 15 nafar fuqaroning "ustoz-shogird" an'anasi asosida bandligi ta'minlandi.

Bundan tashqari, 155 nafar fuqaro o'zini o'zi band qildi. Mahalla hududidagi Orzu Mahmudov ko'chasining gastronomik turizm ko'chasi-ga aylanishi ham mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yerda turli xalqlarning milliy taomlari va shirinliklari tayyorlanadigan 30 dan ortiq umumiy ovqatlanish shoxobchalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, hududda 10 ta mehmonxona tashkil qilingan.

Ayni paytda mahallamizda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanish borasida ishlayapmiz. Mavjud talablar, o'rganishlar asosida hududda maishiy texnika vositalarini ta'mirlash ustaxonasi, sog'lomlashtirishga ixtisoslashgan sport majmuasi, xususan, ayollar fitnes markazini tashkil qilish bo'yicha ish olib boryapmiz. Ushbu yo'nalishlarda tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo'lgan fuqarolarimizga mavjud imkoniyatlar asosida ko'mak berib, ularni qo'llab-quvvatlaymiz. 2025-yil yakuniga qadar mahallamizni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantiramiz.

Gulzoda ERNAZAROVA,
Samarqand shahridagi Bog'i Temur mahallasidagi hokim yordamchisi.



Barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsingga o'tadi

Samarqand shahridagi 109-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida outsorsing usulida sog'lom ovqatlanirishni tashkil etish jarayonlariga bag'ishlangan press-tur tashkil etildi.

Mazkur davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 120 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 2022-yilda rekonstruksiya qilingan. Press-tur ishtirokchilari bog'chada mashg'ulot xonasi, yotoqxona, oshxona va bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

- Bog'chamiz 2022-yildan buyon outsorsing usulida faoliyat yuritib kelmoqda, - deydi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Sevara Qoraboyeva. - Outsorsingning qulaylik tomoni shundaki, bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan men shug'ullanaman, oziq-ovqati bilan outsorsing shug'ullanadi.

- Viloyatimizda 773 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lib, shu paytda 129 tasida outsorsing tizimi yo'lga qo'yilgan edi, - dedi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i Salohiddin Nomirov. - Joriy yilda respublikamizdagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlanirish tashkil etiladi. Bu Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-yanvardagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1-sonli qarorida belgilangan. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi bilan birgalikda mavsumlar kesimida "Yagona mavsumiy taomnoma" ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Endi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir xil menu asosida taom tayyorlanadi.

X. ERGASHEVA.

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI ISHGA TAKLIF QILADI

ISH TAVSIFI:

- Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Elektr muhandisligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha professor-o'qituvchilarni ishga qabul qiladi.
- biz elektr muhandisligiga ishtiyoqi baland, o'zini ta'lim berishga bag'ishlagan va ushbu sohada ilmiy-tadqiqot va ijodiy amaliyotni rivojlantirishni maqsad qilgan professor-o'qituvchilarni ishga olamiz. Muvaffaqiyatli nomzodlar yuqori sifatli ta'lim berish, talabalarda soha bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish, shuningdek, innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

BO'SH ISH LAVOZIMLAR:

- 2 shtat professor-o'qituvchi (ilmiy daraja va unvoniga qarab).

MAJBURIYATLARI:

- elektr muhandisligi, shu jumladan, elektr zanjiri, tizimlar, signallarni qayta ishlash, quvvat va energiya boshqaruv tizimlari bo'yicha bakalavriat va magistratura bosqichi fanlarini ishlab chiqish va o'qitish;
- tashqi moliyalashtirishga yo'naltirilgan faol tadqiqot dasturini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash;
- tadqiqot natijalarini yuqori impaktli jurnallarda nashr etish va milliy va xalqaro konferensiyalarda taqdim etish;
- bakalavriat va magistratura bosqichi talabalarining ilmiy loyiha va tezislariga rahbarlik qilish;
- o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirishga hissa qo'shish;
- kafedra va universitet tomonidan beriladigan topshiriqlarni bajarish, shuningdek, turli jamoat tadbirlarida faoliyat olib borish.
- fanlararo tadqiqot loyihalari bo'yicha universitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish.

MALAKA TALABLARI:

- elektr muhandisligi yoki shu kabi turdosh mutaxassisliklar bo'yicha magistr yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lish;
- a'lo darajada ta'lim berish va talabalarda muvaffaqiyatiga qat'iy intilishni namoyish etish;
- tadqiqot nashrlariga ega bo'lish, shu jumladan, taqriqlar tomonidan tekshiriladigan jurnallardagi nashrlarga ega bo'lish va konferensiyalarda taqdimotlar o'tkazish;

- elektr muhandisligi bo'yicha dasturiy vositalar va laboratoriya jihozlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lish;
- a'lo darajadagi muloqot va shaxslararo ko'nikmalarga ega bo'lish;
- ta'lim, tadqiqot va xizmat ko'rsatishda xilma-xillik, tenglik va inklyuziyaga sodiqlik;

PROFESSOR LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin;
- tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lish, ushbu kafedraning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi bo'lish sharti bilan bir besh yil muddatga ishtirok etishi mumkin;
- professor lavozimini egallash uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan san'at va dizayn sohalari uchun minimal va maksimal ballar jadvalida ko'rsatilgan tegishli minimal balga ega bo'lgan shaxs hujjat topshirishi mumkin.

DOTSENT LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan doktori (nomzodi) yoki falsafa doktori ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin;
- dotsent lavozimini egallash uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan san'at va dizayn sohalari uchun minimal va maksimal ballar jadvalida ko'rsatilgan tegishli minimal balga ega bo'lgan shaxs hujjat topshirishi mumkin.

KATTA O'QITUVCHI LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr,

diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, falsafa doktori, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin;
- katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan san'at va dizayn sohalari uchun minimal va maksimal ballar jadvalida ko'rsatilgan tegishli minimal balga ega bo'lgan shaxs hujjat topshirishi mumkin.

O'QITUVCHI LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- kamida 3 yillik amaliy ish tajribasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

STAJYOR-O'QITUVCHI LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

USTUNLIK BERILADI:

- doktorlikdan keyingi tajriba yoki muhim sanoat tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- turli agentliklar, sanoat yoki boshqa tashqi manbalardan tadqiqot moliyalashtirishni ta'minlash tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- onlayn yoki gibrid fanlarni ishlab chiqish va o'qitish tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- qayta tiklanadigan energiya, aqlli tarmoqlar va IoT texnologiyalari (Internet of Things - narsalar interneti) kabi elektr muhandisligining rivojlanayotgan sohalarda tajribaga ega bo'lganlar uchun.

KERAKLI HUJJATLAR:

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzod universitetning xodimlar bo'limiga quyidagi hujjatlarini topshiradi:
- ariza;
- shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma-obyektivka/rezюме);

- diplom nusxasi (bakalavr, magistr), shuningdek, chet elda olingan diplomni tan olish va nostrifikatsiyadan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnoma (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurslarida ta'lim olayotganlar bundan mustasno);
- fuqarolik pasporti yoki ID kartasi;
- professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan tegishli talablarni bajarganligini asoslovchi hujjatlar;
- xorijiy tilni (ingliz tiliga ustunlik beriladi) bilish darajasini asoslovchi sertifikat;
- nomzodning ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolari mavjud bo'lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, diplom nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalarni taqdim etishlari kerak.

QUYIDAGILARGA TANLOVDA QATNASHISHGA YO'L QO'YILMAYDI:

- o'n olti yoshga to'lmagan shaxslar;
- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- universitetda mehnat faoliyatini olib borayotgan xodim bilan yaqin qarindosh (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, farzandlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari), agar ishga qabul qilinayotgan yoki tayinlanayotgan lavozim ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qilishni taqozo qilsa;
- ishga kirish uchun soxta hujjatlar yoki bila turib yolg'on ma'lumotlar taqdim etgan bo'lsa;
- sudlangan holat tugalanganmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlar.

ARIZA TOPSHIRISH MUDDATI:

- e'lon chiqqandan so'ng bir oy muddat davomida.

ILOVA:

- kafedra professor-o'qituvchilari faoliyatini baholash mezonlari (KPI);
- ilmiy darajalar mezonlari jadvali.

MANZILIMIZ:

- Samarqand shahri Lolazor ko'chasi, 70-uy.

SamDAQU – jamoada xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlashga intiladigan teng imkoniyatlarga ega ish beruvchidir.

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!



Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududiga tegishli ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioxalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeater) ko'payib ketganligini inobatga oigan holda, Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlar talablariga mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV) larga radioxalaqitlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalaqitli ta'sirlar keltirilmalik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko'rsatishga) faqat faoliyat turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarni xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi;

Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o'zlar tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioxalaqit hosil bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur bo'lgan tashkiliy-texnik choralarni ko'rishlari kerakligi;

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmay-

digan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iyan man qilinishi ko'rsatilib o'tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioxalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeater)lar o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" davlat unitar korxonasi ("EMMM" DUK), Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioxalaqitlarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radioxalaqitlarni bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkiqlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkiqlar vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

Radioelektron vositalarni respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

**Manzil: Samarqand tumani, "Yoshiq" MFY.
Telefonlar: 66-616-43-45, 66-616-44-15.**

SAMARQAND VILOYATI ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ibragimov Davletbayga (2025-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Nalbandyan Seda Tevosovnaga (2024-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy. * * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Jabbarova Dilorom Baratovnaga (2018-yil 28-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebunis ko'chasi, 4-"A" uy. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboevich notarial idorasida marhum Xalimova Zurafoga (2014-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy. * * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum

Mamedova Zaynab Utayevnaga (2024-yil 5-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona. * * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Mamatkulova Suxbat Pardayevnaga (2022-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 10-uy. * * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Safarov Komiljon Mingboevichga (2019-yil 1-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy. * * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Xujayarov Xasan Xamidovich nomiga 2018-yil 21-dekabrda berilgan AF 0399520 raqamli "B.S.D" toifali haydovchilik guvohnomasi Narpay tumani hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99893-379-66-50.

O'zbekiston MTRK "Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi" davlat muassasasi jamoasi teleradiokompaniya rejissori Alisher Rizayevga ukasi **Feruz RIZAYEV**ning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Етмиш ёшдан ошган (аникрофи, етмиш тўртта кирган) қотма, бўйчан, сийрак сочлари оқарган, тишларининг ясамалиги сезилиб турадиган, юрганда андак энкайиб, эҳтиёткорлик билан қадам ташлайдиган, нигоҳлари хиралашган, кўзойнаги остидан сал анкайиб қарайдиган, кўринишда сокин, хотиржам бўлса-да, салга асабийлашиб, серзарда бўладиган, касалванд, жиззаки чолни кўз олдингизга келтира оласизми?

Ана шу одам, менман.
Ваҳоб Кабирович Кабиров, дейишди каминани.
Менинг ёшимдагилар, одатда, қачонлардир қилган амаллари билан мақтаниб, ўзларини минбар ва ҳайъатга уриш, ҳукуматга ҳуда-беҳуда ҳамду сано ўқиш, тобут бошида нутқ сўзлаш, хотиралар, гоҳида шеър ёзишга мойил бўлишди. Булар бари менинг табиатимга зид. Худо сақласин! Ҳатто газетачиларнинг «бахтли кексалик», «нуроний отахонлар» сингари ибораларига киноя билан қарайман; назаримда, булар бари жуда шалдирик, носамимий тўқималар бўлиб туюлади. Илоҳим адашган бўлайин-у, етмишдан кейин русларнинг «Старость не радость» деган нақли мазмун, моҳияти билан ҳаммининг эшигини ноҳуш тақиллатаверади. Ҳатто баҳор тароватидан, мусиканинг сеҳрли охангидан, нозанин чеҳралардан лаззатланишингга касалликлар, ноҳуш хотиралар, ўлим ҳақидаги дилингни сиёҳ қиладиган ногаҳоний фикрлар ва бошқа ожизликлар халақит бераверади.

Беморликлардан бошлайдиган бўлсак, қарийб йигирма йилдан бери хафақон (гипертония, қон босими) билан яккама-якка курашиб келаётганимни, аммо кўпга бормай бой беришимни айтиб ўтишим керак. Бир бор йиқилдим ҳам, аммо шифокорлар, рингдаги қадам: «енгил накаут», деганига ўхшаб, микроинфаркт бўлганимни айтишди ва ўрнимдан турғизиб қўйишди. Менга ўхшаш бадбахт, захар чолга нариги дунё ҳам зор эмас экан, деган тўхтамга келдим ўшанда. Дилозордан Худо безор, деганлари, эҳтимол шу бўлса.

Докторлар, табиб-у экстрасенсларни ҳурмат қилман, албатта, аммо йигирма йилдан бери уларнинг бари менга, шунчаки ён босадиган муҳлис ёки хангоматалаб томошбин ролини бажариб келишди. Рингдаги боксчи: «бўшасан», «ўнг қўлингни ишга сол», «йиқит», деб бақиряшди-ку... Шунга ўхшаш.

Ҳар йили кардиология шифохонасига ётиб ҳам чиқман ва доим ман-ман деган докторларгина эмас, фан ҳам касаллик сабаблари, уни даволаш усулларидан беҳабар, деган тўхтамга келаман. Мени даволайдиган доктор шу мавзуда диссертация ёқлаганди. Аммо раҳматлини айнан инфаркт олиб кетганлиги бунга мисол бўлар, деб ўйлайман.

Бошқа дардларим ҳам бор ва бунга табиий бир ҳол деб қарайман. Менинг ёшимдагиларга табиат ҳам, жамият ҳам нуқул чап қўлини чўзишини биламан. Аммо бошқа оғриқларим ҳақида гапиришни истамайман! Одамларга аввал нон керак, кейин хангома, деб эшитганман. «Зангори экран» ва «сарик матбуот»дан моргдаги мурдалар, лаблари бўсага ташна фоҳишалар, эр деган нарса ни кўлқондай янгилаб турадиган юлдузлар ҳаёти, ҳақиқат ёки афсоналигини фарқлаб бўлмайдиган ўйдирмаларни кўриб, ўқиб, ўшаларга мойил бўлиб қолган бугунги авлод учун менинг касаллиг-у, ҳасратларим бегона ва зерикарлидир.

Бирор йилга етмай, бу ёруғ оламни тарк этман, деган фикр шууримга канадай ўрнашиб олган. Боринги, бир-икки йил ортиқча яшаганда ҳам вужудимдаги дардлар, руҳиятимдаги дилғашликлар, виждоним олдидаги оғриқлардан холи бўлмаслигини биламан. Мадомики шундай экан, вақтида кетган маъқул. Инсон ўлгандан кейин гул, дарахт, рух сифатида намоён бўлади, деган гапларга киноя билан қарайман. Лекин тақрибан юз йиллардан кейин қайта кўз очиб, бир бор бўлса ҳам ҳаётини жуда-жуда кўргим келади.

Бир танишимнинг юпқагина китобидан шундай нақлни ўқиган эдим ва у хотирамда михланиб қолган: «Ўн - қўй, йигирма - бўри, ўттиз - арслон, қирк - қилич, эллик - пахта, олтиш - ахта, етмиш - тахта». Айрим давраларда бунга нозорилик билдиришди: «Ахир, саксон, тўқсонга кирганлар анча-ку!» Шунда ўзимдан андак қўшиб қўяман: «Ҳа майли, етмиш - нўхта, саксон - тахта».

Саксонга кирмаслигини биламан. Авлодимиздан фақат дадам мендан атиги бир неча ой кўпроқ рўзгузорлик қилдилар. Менинг ёшимда у киши техникумда ботаникадан дарс берардилар. Бир етмиш беи йиллик юбилейларини нишонлаш ташвишига тушдик ўшанда. У пайтлар обкомда бўлим мудири эдим ва ўзимга яраша мавқеим бор эди. Тўйхона одамга тўлиб кетди. Ўртани олиб борувчи такаллуф билан: «Энди мухтарам юбилейимиз тўрдан - ўз ўринларини эгаллашларини сўраймиз», деди. Креслога бир неча қадам қолганда, дадам аввал ноҳуш тебраниди, сўнг юзтубан йиқилиб, типирчилаб қолди. Шу ерга келганда, қон босими охиби кетади, деб ҳеч ким ўйламаганди. Бундай ноҳушликни душманамга ҳам раво кўрмас эдим. Ҳеч гапдан беҳабар меҳмонлар ҳамон гул кўтариб келишарди. Бу гулдастларни кейин унинг тобути, қабри устига қўйдим.

Мен олтиш ва етмиш ёшга тўлганимда юбилей ўтказишдан ўзимни тийдим. Йўқ, ўша лахзада бандчиликни бажо келтириб қўйишдан чўчиганим йўқ. Сен тўрда сўлжайиб ўтирсан-у, одамлар чикиб, ҳуда-беҳудага сифатлайверса, ёлгон-яшиқларни қўшиб мақтайверса, алланечук бўлиб кетасан киши.

Шу ўринда, онамни ҳам инфаркт олиб кетганини айтиб ўтсам ортиқчилик қилмас. Тафсилотига қулоқ тутинг. Бир ҳафта бурун қўшнингнинг ховлисига ўт кетган эди. Ҳеч нарсаи қолмай ёнди ўзи ҳам. Сабаби - келини дазмол босиб, симни тоқдан узмай, бозорга кетиб қолгани бўлган. Дарвоза қулфлоглиги сабаб, ўрни вақтида ўчириш қийинлашган.

Ойим ҳам дазмол босиб бўлгач, бозорга жўнабди ва етиб боргандан сўнг: «Симни узмиш ёдимдан чиқибди», деган хаёлга борибди, бозор-ўчарини кейинга қол-



дириб, такси билан, орқага қайтибди. Узоқдан қараб, тутун йўқлигидан дили анча таскин толган бўлса-да уйга отилиб кирибди. Қараса, симни тоқдан узиб, дазмолни бир чеккага олиб қўйган экан. Шунга қарамай, остонада йиқилиб...

Кира ҳақини ундиришга улгурмаган таксичи ичкарига кирса, онамиз бандаликни бажо келтириб қўйган эканлар. Табиийки, одамларни қақирибди...

Ер билан осмон оралиги бўм-бўш бўлмайди. Менинг ҳам ҳаётим фақат касалликлар, таъзиялар, ўлим ҳақидаги вос-вослардан иборат эмас. Мен ростўй, чидамли, адолат тарафида бўладиган кишиман. Ўзбек тилида равон гапираман, ёзаман. Шунингдек, руслар, тожиклар билан она тилларда сўхбат қурганимда ўзбекчилигимдан шубҳаланиб қолишди. Байналмилалчиман. Хонадонимда ахудийлар, чўчқилар ёки бошқа миллат вакиллари ҳақида латифа айтишга бирор киши журъат этолмайди. Катта келиним - тожик, набирам - Темур билан русча гаплашаман.

Етмишдан ошган бўлишимга қарамай бекор турмайман: унча-мунча йигитчалардан сифатли ва кўпроқ иш бажариб қўяман. Ҳар бир эркак оз-оздан деҳқон, дурадгор, монтер, сантехник бўлиши зарур, деб биламан ва уйимда бу юмушларнинг барини ўзим удалайман.

Олтиш ёшга кирган кунимок (ўшанда обкомда ишлардим) ариза ёзиб, нафақага чиқдим. Аммо ҳозирга-ча қақириб, таржима, тахир ишларни ёрдам беришимни сўраб қолишди.

Бир неча йилдан бери газетада ишлайман. Ўшанда нуронийлар жамғармасида ишлайдиган дўстим: «Йўлингиз устида газета идораси бор - малол келмаса, шу хатни бериб қўйсангиз», деди. Айтган кишига ҳалиги омонатни тутқазган эдим, у очиб кўрди-ю, надомат билан - Бу русча экан-ку, ким таржима қиладди? - деди ёқинқирамай.

- Мен таржима қиламан, - дедим ва зум ўтмай ўзбекчага ағдариб бердим. Йигитча ажабланиб, кўз ташлаб чиқди, кетмай туришимни сўраб, бошлиқнинг хонасига кириб кетди. Сўнг чиқиб, хўжайин мени кўрмоқчи бўлаётганини айтди.

- Биз таржимон излаб юргандик, ҳамкорликда ишласан нима дейсиз? - деди у салом-алиқдан кейин. - Ҳамма шароитингизни яратиб берамиз.

Мен «Бир оёғим гўрнинг лабиди турган чолман-ку», дейишим керак эди. Аммо, асли газетани бўлганим, бугунги матбуотнинг томирини топиб, юрак уришини билишга бўлган қизиқишим монелик қилиб қолди.

- Бўпти, - дедим ва ҳеч қандай шартни ўртага қўймай, ишни бошлаб юбордим.

Тарихининг тақдорланишини қарангки, бундан нақ эллик йил аввал ҳам айнан шундай ҳол рўй берган эди. У пайтлар тарих факультетининг кечки бўлимида ўқирдим. Декан ўринбосари қўлимга конверт тутқазиб, редакцияга элтиб беришимни тайинлаб қолди. Айтилган кишига топшириб, орқага қайтаман, деганимда:

- Бу русча экан-ку, ким таржима қиладди? - деб қолди.
- Мен таржима қиламан, - дедим ва бир оз қийналиб бўлса ҳамки, ўзбекчалаштириб бердим.

Ўрта мактабда русча ўқиганим сабаб, тилни яхши ўзлаштиргандим. Аммо университетга ўзбек гуруҳига илиниб қолганим. Фақат бу эмас, дадам билан ҳар хил ҳужжатлар, лекцияларни ўзбекчалаштириб, кўзим пишиб қолганди. Хуллас, ақали амаки ажабланиб турди-ю бош муҳаррирининг хонасига кириб кетди. Кейин мени таклиф этди. Бу одам қаерда ўқишим, ишлашимни суриштирган:

- Биз таржимон излаб юргандик, бирга ишласан нима қиладди? - деди.

Фаолиятимни газетачилиқдан бошлаб, шу касб билан якунлаётганим галати тасодиф, албатта. Батафсилроқ айтадиган бўлсам, олти йил орасида таржимонликдан муҳаррир ўринбосари вазифасигача кўтарилганим. Кейин обкомга ишга олишди. Ўн бир йил давомида учта саркотиб билан ишладим. Тўртинчисига унчалик ёқинқирамадим, шекилли, тагин ўз ўрнига қайтаришди. Бешинчиси тагин мени қақириб олди.

Ана шу саркотиблар, улардан кейин келган ҳокимлар ҳақида китоб ҳам қоралаган эдим, аммо уни нашриётга олиб боришга юрагим зириллайди. Аксар саркотиблар-

нинг хотинвозлиги, қўшиб ёзишга мойиллиги, улардан кейин келган ҳоким ва ҳокимчаларнинг эса, бунга қўшимча: кўнмас мулкни босиб қолиши, одамларни беҳаё гаплар билан ҳақорат қилиши, ҳатто мушт тушириб қолиши, қавмларини ёғли ишга жойлаштиришга зўр беришларини эълон қилиб, балога қолишдан чўчишлари ва менга турфа баҳоналарни рўқач қилишларини кўз ўнгимга келтирмаман. У ерда ҳам палаги пиймаган, гўрлар ишлашади-да.

Ҳозир ишлаётганим - нодавлат нашр бўлиб, ундаги ёшларнинг аксари набирам қатери. Улар содда, беғубор, аммо саводлари ҳаминқадар. Бирор муаллиф: «Фалон қишлоққа қонинотдан меҳмон келибди» деса, ишонийлади ва дарҳол эълон қилиб юборишади. Буларнинг савияси эллик йил илгариги ҳамкасбларидан баланд бўлмаганлиги дилимга ўтиришмайди. Мадомики, ёшлар савиясида ўзгариш бўлмаган экан, бошқа соҳалардан тараққиёт излаб ўтиришнинг ўзи ортиқчадир.

* * *

Бугунги матбуотдан кўнглим тўлмайди. Одамлар «қизил» ва «сарик»қа ажратадиган давлат ҳамда нодавлат матбуотни кўздан кечирадиган бўлсак, биринчисиде, бошдан-оёқ чўчмал ҳамду санаго, баландпарвоз сарлавлаларга, ноўрин қақирмақларга дуч келасиз. Давр муаммолари, адолатли танқид, инсон изтироблари, демократик интилишлар улар учун бегонадай. Ҳамон шўролар давридагидек, суд, прокуратура, милиция ҳодимлари, турфа амалдорларнинг фидойилиги, ҳалоллигини мадҳ этишади ва бунга ишонинг келмайди. Шунингдек, йўлларнинг равонлигини, деҳқоннинг фаровон ҳаёти, янги қурилишларни мақташади ва сиз нимадандир қонқмайсиз, надомат чекасиз. Шунинг учун бўлса керак, уларнинг тиражи жуда оз. «Қизил» газеталарга мажбурий тарзда обун қилдиришларини кўриб, «ёмоннинг бир қилиги ортиқ» деган мақолни эслашдан бошқа иложингиз қолмайди. Булар ҳам етмагандай, мазкур нашрларда нописандлик, калондимоғлик оҳанглари манаман деб туради.

Телевизордаги каналлар орасидан, кўп ҳолларда, денгиз ости ҳаёти, ҳайвонот оламини бағишланган кўрсатувларни, бокс мусобақаларини топиб оламан. Уларнинг ҳаёт тарзида носамимийлик, ясамалик йўқ, табиийлик, журъат ва жасорат бор! Чунки ана шу мароқли томошада сценарий муаллифи, режиссёр, актёр катнашмайди.

Аслини олганда, бу дунёда ҳамма нарса нисбий. «Давлат газеталари» деганимиз турли партиялар, вазирликларга қарашли. Аммо ўша партиялар, вазирликлар давлатга тобелигини ҳисобга оладиган бўлсак, бу ибора мантаник эканлигига ишонч ҳосил қиламиз.

Нодавлат газеталар ижтимоий ҳаётга имкон қадар аралашмайдилар, олди-қочди гаплар билан чекланадилар, кўчирмачилик қиладилар, бор куч тиражини ошириш ва кўпроқ пул топишга сафарбар этилади. Аммо улар ҳам аллақандай пинҳоний кучдан хавотир тортиб турадилар. Давлатга қарашли матбуот раҳбарлари ўриндиқларидан, нодавлатлари эса маблағларидан жудо бўлиб қолишдан ўлгудай кўрқибди чамаси. Цензура йўқотилиб, ўрнига уч бошли илон пайдо бўлганга ўхшайди. Бу - муассис, муҳаррир ва оддий редактор. Айрим жойларда асперт гуруҳи ҳам борки, у эркин сўз, ошқоралиқнинг ашаддий душмани ролини бажаради. Шу газеталарга ишониб яшайдиган одамларга ачиниб кетаман гоҳида.

Жуда ошириб юборган бўлсам, узр. Булар бари шахсий фикрлар, албатта. Шукрки, Конституция шахсий фикрларни айтиш ҳуқуқини берган. Матбуот, айнан Конституция ва қонунлар талаби даражасида эркин бўлиши тарафдориман, холос. Айнан ана шу нарса етишмай қолаётгандай бўлади гоҳида.

Газетамизда босилган асарлари ҳақидаги мақолада: «Асарларнинг подшоши ўта қаттиққўл ва золим»... деган ибора ўтган экан. Бош хўжайин, яъни «генералний директор» деб аталадиган муассис (уни «катта» дейишади. Бу ерда амалдорлар кўп: бошлиқ ўринбосарлари, катта муҳаррир, ижодий гуруҳ раҳбари ва хоказо) жамоани йиғиб, роса уриши; бу жумладан ғаразли мазмун излашлари мумкинлигини ўқтирди. Аммо гапнинг туб моҳиятини кўплар фаҳмолмай қолди.

Бизнинг замонамизда...

Умуман, ўтмишни улғулаб, бугундан қусур излаш ёки бунинг аксини қилиш - менинг табиатимга зид. Ўтмишнинг ҳам, бугуннинг ҳам ўзига яраша ютуғ-у қусурлари бўлган ва бўлиб туради. Шунчалик тараққий этган АҚШда ҳам одамлар норози бўлиб кўчага чиқишади-ку. Чунки кишининг талаб ва эҳтиёжлари замон тараққиётидан олдинлаб кетади ва у нималардандир қоникмай қолади. Бир ҳисобда шуниси маъқул: батамом шукронага ўтиб олган киши курашмай қўйиши мумкин. Қусурлар учун нуқул ҳуқуматни айблаш ҳам бир ёқламалиқдир. Барининг илдизини ўзимизнинг чўлтоқ дунёбинглигимиздан излашга тўғри келади. Ёши ўтган сари халқ сайлаган президентни, ҳуқуматни ҳурмат қилмаган кишини нормал одам деб ҳисобламайман. Бу ҳам менинг шахсий фикрим, албатта.

Тараққиётни ҳам кўрабилиш керак. Мен яшайдиган мана шу жойлар ўтган асрнинг олтишинчи йилларида колхознинг ери эди, помидор экишарди. Ҳозир - шаҳар: истаган жойингизга олиб борадиган машиналар, хоҳлаган матоингизни топиб берадиган дўконлар, спорт иншоотлари...Аммо шуларнинг барига қарамай, йўлларнинг бузуқлиги, қишда газ босимининг пасайиб кетиши, ҳар қадамда уюлиб ётган чиқиндилар асабингизни бузади. Айниқса, чет мамлакатга борсангиз, бу тафовутлар янада равшанлашади.

Бугунги газетачиларга қайтадиган бўлсак, уларнинг компьютерда чакқон ишлашларига, интернет орқали жаҳон билан тиллашларига тан бермоқ керак. Аммо умумий савия оқсоқ. Улар ўзбек тилини яхши билишмайди: изланувчанлик, курашчанлик, бардош, тагин алланималар етишмайди. Редакцияни «тахририят» дейишади, аммо шуларнинг бизнинг жамоада тахир қиладиган бирор киши йўқ. Бир саҳифада «таассурот» сўзи уч хилда ёзилса ҳам парволарига келмайди. Бақамти ўтириб, ўргатмоқчи бўлсангиз, одоб юзасидан қулоқ тутиб туришади, аммо нигоҳларидан: «Чол, бошимни қотирмай, ишингни қилавер», деган дашонми уқиб оласиз ва хунобингиз ошади.

Матбуот зибилларнинг энг пешқадамларини бой бериб бўлади: уларни аллақачон Россия оммавий-ахборот воситалари илби кетди. Бундай йўқотиш, таассуфки, жадал давом этапти.

Бугунги матбуотда ишлайдиган ёшларга, ростдан ҳам, ачиниб кетаман. Иш бошлаганда беғубор, содда, солиҳ йигит-қизлар ноҳуш муҳит сабаб бўлиб, қўрқоқ, ўз фикрига эга бўлмаган писмқ, мунофиқ, гоҳида таъмагирга айлиб қолади. Бу ёшлар, масалан, доктор, ветврач, боғбон, асарларига ўхшаш касбни танлашганда, ўзлари, оилалари ва жамиятга кўпроқ фойда келтиришарди, деган даққоқ хулосага келиб қўйганман. Тагин жамиятда қонунларга қараб эмас, бошлиқларнинг қош-қовоғига қараб иш юритишар экан, тараққиёт, устиворлик, демократия ҳақида сўз юритиш хомаёён бўлур эди.

Уйимда ҳам асабимни эгавлаб турадиган ҳолатлар оз эмас. Қон босимим бот-бот охиб туришини айтган эдим. Докторлар бундан ташари «остеохондроз» деган ташхис ҳам қўйишган. Сувяларим қақшайди, уйқум келмайди. Эрталаб энгли тортиб турмайман, балъакс, оғриқдан асабий бўлиб уйғонаман, ўрнимдан турмай, лоҳас бўлиб ётаман. Хотиним кириди. У гапни нимадан бошлаб, нима билан тугатишини тахминлайман ва ҳар гал айтганимдай бўлиб чиқади. Аввал соғлигим ҳақида қайғуради, массажага бормай қўйганим учун дашон беради, аллақандай янги дорилар чиққанини гапиргач, уларнинг нархи қимматлигидан нолиган бўлади. Шунингдек, аллақандай сўхтаси совуқлар гўшт билан сариёғни қиммат сотишаётганини айтиб, уларни ланъатлайди. Кейин музлаткич бўшаб қолганлиги, Клара (ўғай қизим) билан Муризокарим(кичик ўғлим) га бир неча бор тайинлаган Ўлжигўяга қарамай, ўзларини қарликка солишаётганидан шикоят қиладди.

- Чойга чиқақолинг, - дейди охирида эшик томон равона бўлар экан.

Ҳар куним, деярли шу тариқа бошланади. Авваллари ўрнимдан тургач, бадантарбия қилардим, югурардим ва бундан энгли тортардим. Бора-бора: «Бундан не фойда: кўпга бормай ўламан-ку», деган хаёл халақит бера бошлади. Назаримда, инсон ҳар қандай ёшда ҳам ноҳуш хотиралар, юракни сикувчи ўйларни енгиши, оптимистик кайфиятда яшаши керак. «Барибир ўламан-ку» деган шуншук хаёл миянгага жойлашиб олдики - қўл-оёғинг боғланади, ўлимнинг тезлашади. Ана шундан шум фикр вирусини ёшроқ кишининг миясига қариб олса, худо урди дераверинг. Омадсизлик устига омадсизлик келаверади.

Ухуллас, мен аввал танометрни олиб, унинг тасмасини тирсагимдан юқорига ўрайман, қон босимимни ўлчайман: агар унинг юқори шкаласи бир юзу олтишдан, пасткиси тўқсондан баланд бўлмаса, жилла хотиржам бўламан ва шунга қарамай, янги чиққан таблеткалардан бир-иккитасини ютиб юбораман. Сўнг, қарамшўрва, зира ва бошқа неъматларнинг омухта ҳиди ўрнашиб қолган ошхонага кириб, ўз ўрнини эгаллайман. Дастурхонда сариёғ, тухум, мураббо ва бошқа егуликлар бўлади. Гоҳида мен учун қон босимини оширмайдиган гуручли, қарамли ёки творогли энгли овқат тайёрлаб қўйишади. Кўп ҳолларда, тушлиқда ва кечкурун менга алоҳида қозон илишади.

- Фериде ўқишига кетдимми? - сўрайман, гарчанд бунни билсам ҳам.

Хотиним бош тебратиб, маъқуллайди. - Йўлкира бердингизми? - саволда давом этаман.

- Ҳа.

- Клара ҳали ётган бўлса керак...

- Биласиз-ку, - дейди унга бўлган ноҳуш муносабатини яширолмай ва қўшиб қўяди: - Ўғлингиз билан келинингиз ҳам нонушта қилиб кетишди. Ёки шунга ўхшаш гапларни айтди.

Иккаламиз чой ичишга киришамиз.

Нусрат РАҲМАТ.

(Давоми келгуси сонда).



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 817 nusxada chop etildi. Buyurtma 369. Hajmi 2 bosma taqob, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda